

PAPER

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING EKVIVALENTLIK MASALASI: INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI XARAKTER IBORALARI TIMSOLIDA

Shaxnozahon Maqsudova Muhsinjon qizi^{1,*}

¹Frag'ona davlat universiteti 2- kurs tayanch doktoranti

*shahnozuhsinova96@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada frazeologik birliklar, xususan, xarakter iboralar va ularning turli tillardagi ekvivalentlik masalasi tadqiq etilgan. Tadqiqot ingliz va o'zbek tilidagi xarakter iboralarining qiyosiy tahlili asosida olib borilgan. Frazeologik birliklarning tasnifi, ekvivalentlik darajalari va tarjima strategiyalari ko'rib chiqilgan. Ingliz va o'zbek tilidagi 50 dan ortiq xarakter iboralarining ekvivalentlik darajasi ko'rib chiqilib, statistik va komponental tahlil metodlari yordamida o'rganilgan. Tadqiqot natijasida xarakter iboralarining to'rt asosiy ekvivalentlik darajasi (to'liq, qisman, nol va yolg'on ekvivalentlik) aniqlanib, ularning madaniy-lingvistik xususiyatlari tahlil qilingan. Maqola frazeografiya, lingvokulturologiya va tarjimashunoslik sohalari uchun qimmatli ma'lumotlar beradi.

Key words: frazeologik birliklar; xarakter iboralar; ekvivalentlik darajalari; tarjima strategiyalari; lingvokulturologiya; ingliz tili; o'zbek tili.

Kirish

Til jamiyat va madaniyatning eng muhim ko'zgusi hisoblanadi. Har bir tilda mavjud bo'lgan frazeologik birliklar (idiomalar) o'sha xalqning dunyoqarashi, milliy o'ziga xosligi, tarixiy tajribasi va madaniy kodlarini o'zida mujassamlashtiradi. Xarakter iboralar esa insonning tabiati, xulq-atvori, tashqi ko'rinishi va ichki dunyosini aks ettiruvchi eng boy frazeologik qatlamni tashkil etadi. Globallashuv va madaniyatlararo muloqot jadallashgan hozirgi davrda frazeologik birliklarni tarjima qilish va ularning ekvivalentlik masalasini o'rganish dolzarb ahamiyatga ega. Tilshunoslikda frazeologik birliklar tarjimasining umumiy masalalari yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, xarakter iboralarining ekvivalentlik darajalari, ayniqsa ingliz va o'zbek tillari kontekstida, maxsus tadqiqot obyekti sifatida kam o'rganilgan. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi frazeologik birliklar, xususan, xarakter iboralarining ekvivalentlik darajalarini aniqlash orqali, tarjima nazariyasi va amaliyotiga, qiyosiy tilshunoslikka, lingvokulturologiyaga, leksikografiyaga hamda til o'qitish metodikasiga qo'shadigan hissasi bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi xarakter

iboralarining ekvivalentlik darajalarini aniqlash, ularning lingvo-madaniy xususiyatlarini ochib berish hamda tarjima amaliyotida qo'llash mumkin bo'lgan strategiyalarni taklif etishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan: ingliz va o'zbek tillaridagi xarakter iboralarini to'plash va tasnif qilish; xarakter iboralarining lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash; xarakter iboralarining ekvivalentlik darajalarini aniqlash.

Natijalar

Frazeologik birliklar (idiomalar) tuzilishi jihatidan ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, semantik jihatdan yaxlitlikka ega bo'lgan, tarkibiy qismlarning individual ma'nolaridan kelib chiqmaydigan obrazli iboralar. Frazeologik birliklarning asosiy xususiyati ularning ko'chma (figurativ) ma'noga egaligi va semantik yaxlitligidir.

Cramley [1] ta'kidlaganidek, idiomalar "so'z shaklidan uzunroq, lekin gapdan qisqa bo'lgan, ma'nosi tarkibiy qismlar bilimidan kelib chiqmaydigan murakkab birlik"dir. Mona Baker esa idiomalar

larni “haqda kam o’zgaruvchan, tarkibiy qismlarining alohida ma’nolaridan kelib chiqmaydigan ma’noga ega bo’lgan til qoliblari” sifatida ta’riflaydi. V.V. Vinogradov [2] frazeologik birliklarni “maxsus kimyoviy aralashma” deb ataydi, chunki ularning ma’nosi barcha komponentlar ma’nosining sintezidan hosil bo’ladi. Frazeologik birliklar tabiati jihatidan madaniy bog’liq bo’lib, ekvivalentlik masalasi tarjima amaliyotida muhim ahamiyatga ega. Ekvivalentlik – bu bir til birligining boshqa tildagi muqobil variant bilan ma’no va funktsiya jihatidan mosligi darajasidir. Nida va Taber [3] idiomalarni tarjima qilishning uchta asosiy strategiyasini taklif qilganlar: Idiomalarni idioma bo’lmagan iboralar bilan tarjima qilish, idiomalarni boshqa idiomalar bilan tarjima qilish, idioma bo’lmagan iboralarni idiomalar bilan tarjima qilish.

Turli tillardagi frazeologik birliklar o’rtasidagi ekvivalentlik darajalarini quyidagicha tasniflash mumkin: to’liq ekvivalentlikda manba va maqsad tillardagi iboralar ham ma’no, ham struktura, ham leksik tarkib jihatidan bir-biriga mos keladi. Bu holatda iboralar nafaqat bir xil ma’noga, balki bir xil obrazli asosga ham ega bo’ladi.

Bu misollardan ko’rinib turibdiki, to’liq ekvivalentlikda ingliz va o’zbek tilidagi iboralar bir xil obrazlardan foydalanadi. Masalan, “lose one’s head” va “boshini yo’qotmoq” iboralarida bosh (head) komponenti mavjud bo’lib, ular bir xil vaziyatda qo’llaniladi. Yoki, yurak somatizmi va o’zbek tilidagi ko’ngil konsepti bir ma’noni bermoqda. Til somatizmi bilan qo’llanilgan iboralarda ham mutloq ekvivalentlik darajasini kuzatish mumkin. Albatta bu darajalar iboralarning har bir turida kuzatilgan. Ammo biz ushbu tadqiqot uchun qisqaroq natijalarni ulashdik. Qisman ekvivalentlik – manba va maqsad tillardagi iboralar bir xil ma’noni ifodalaydi, ammo strukturasini, leksik tarkibi yoki obrazi jihatidan farq qiladi. Bu holatda iboralar semantik jihatdan mos kelsa-da, ularning obrazli asosi turlicha bo’ladi. Masalan: a tough cookie – temir bardoshli; green thumb – qo’li gul; wear one’s heart on one’s sleeve – yuragini ochmoq; green with envy – hasaddan yonmoq. Bu misollar orqali biz qaysidir leksik yoki obrazli o’xshash iboralarning ekvivalentlik darajasini ko’ra olamiz. Ekvivalentsizlik – manba tildagi idiomaning maqsad tilda to’g’ridan-to’g’ri muqobili mavjud emas. Bu holatda tarjimon parafras usulidan foydalanib, iboraning ma’nosini oddiy so’zlar bilan ifodalashi mumkin. Ekvivalentsizlik holatida ingliz tilidagi iboraning o’zbek tilidagi to’g’ridan-to’g’ri muqobili yo’q. Masalan, “blue blood” iborasining o’zbek tilida “ko’k qon” degan so’zma-so’z tarjimasi mavjud emas, lekin “oqsuyak” so’zi bilan ifodalanuvchi tushuncha bilan o’xshashlikka ega. Yolg’on ekvivalentlik – manba va maqsad tillardagi iboralar strukturasini va leksik tarkibi jihatidan o’xshash, ammo ma’nosi jihatidan farq qiladi. Bunday holatlar tarjimada “tarjimonning soxta do’stlari” deb nomlanadi.

Bu misollardan ko’rinib turibdiki, yolg’on ekvivalentlik holatida ingliz va o’zbek tilidagi iboralar tarkibiy jihatdan o’xshash bo’lsa-da, ularning ma’nosi mutlaqo farq qiladi. Masalan, “bite one’s tongue” va “tilini tishlamoq” iboralari tuzilishi jihatidan o’xshash bo’lsa-da, ularning ma’nosi turlicha hisoblanadi. Frazeologik birliklar ekvivalentligini o’rganish tarjima sifatini oshirish, tarjima strategiyalarini to’g’ri tanlash va tarjima muammolarini hal qilish imkonini beradi. Tarjimonlar ingliz va o’zbek tillaridagi xarakter iboralarning ekvivalentlik darajalarini bilishi orqali matnning obrazlilikini, ekspressivligini va milliy o’ziga xosligini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo’ladilar. Shu bilan birga, til tizimlari o’rtasidagi o’xshashlik va farqlarni aniqlash, til universalialarini o’rganish hamda til rivojlanishi va o’zaro ta’sir jarayonlarini kuzatish uchun muhim. Ingliz va o’zbek tillari turli til oilalariga mansub bo’lgani sababli, ularning qiyosiy o’rganilishi til tipologiyasi uchun qimmatli ma’lumotlar beradi. Frazeologik birliklar ekvivalentligini o’rganish madaniy kodlarni aniqlash, milliy mentalitetni o’rganish va madaniyatlararo aloqalarni tahlil qilish imkonini beradi. Xarakter iboralar orqali ingliz va o’zbek xalqlari qadriyatlarini, stereotiplari va dunyoqarashidagi o’xshashlik va farqlarni aniqlash mumkin. Bundan tashqari, chet tilini o’rganishni osonlashtirish, madaniy

kompetensiyani oshirish va tarjima ko’nikmalarini rivojlantirish uchun zarur. O’zbek talabalari ingliz tilini o’rganishda, ingliz talabalari esa o’zbek tilini o’rganishda frazeologik birliklarning ekvivalentlik darajalarini bilish orqali til kompetensiyasini oshirishlari mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot metodologiyasi kompleks yondashuvga asoslangan bo’lib, quyidagi metodlarni o’z ichiga oladi: Qiyosiy-kontrastiv tahlil – ingliz va o’zbek tilidagi xarakter iboralarini solishtirib o’rganish uchun foydalanilgan. Komponental tahlil – iboralarning tarkibiy qismlari va ularning semantikasini o’rganish uchun qo’llanilgan. Statistik tahlil – to’plangan ma’lumotlarni miqdoriy jihatdan umumlashtirish uchun qo’llanilgan. Tadqiqot materialini asosan, xarakter iboralarning ingliz va o’zbek tillaridagi ekvivalentlari tahlil etilgan. Tadqiqotda Koller taklif etgan ekvivalentlik tipologiyasi (to’liq, qisman, nol va yolg’on ekvivalentlik) metodologik asos sifatida qabul qilingan. Bundan tashqari, Mona Baker ishlab chiqqan tarjima strategiyalari ham tadqiqot jarayonida qo’llanilgan.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar natijasida shuni ayta olamizki, ingliz va o’zbek tillaridagi xarakter iboralarning ekvivalentlik darajalari to’rt asosiy guruhga bo’linadi: to’liq ekvivalentlik, qisman ekvivalentlik, ekvivalentsizlik (nol ekvivalentlik) va yolg’on ekvivalentlik (psevdo-ekvivalentlik). To’liq ekvivalentlik holatida ingliz va o’zbek tilidagi iboralar ham ma’no, ham struktura, ham leksik tarkib jihatidan bir-biriga mos keladi. Bunday iboralar sonining kamligi tillarning turli oilalarga mansubligi bilan izohlanadi. Qisman ekvivalentlik holatida ingliz va o’zbek tilidagi iboralar bir xil ma’noni ifodalasa-da, ularning strukturasini, leksik tarkibi yoki obrazi jihatidan farq qiladi. Bu guruh eng katta guruhni tashkil etib, frazeologik birliklarning milliy-madaniy o’ziga xosligini ko’rsatadi. Ekvivalentsizlik holatida manba tildagi idiomaning maqsad tilda to’g’ridan-to’g’ri muqobili mavjud bo’lmaydi. Bu guruh ham sezilarli darajada katta bo’lib, tillar o’rtasidagi madaniy-lingvistik farqlarni aks ettiradi. Yolg’on ekvivalentlik holatida manba va maqsad tillardagi iboralar strukturasini va leksik tarkibi jihatidan o’xshash bo’lsa-da, ularning ma’nosi mutlaqo farq qiladi. Bu guruh eng kichik guruhni tashkil etsa-da, tarjima amaliyotida eng ko’p xatolarga sabab bo’ladi. Xarakter iboralarni tarjima qilishda Mona Baker taklif qilgan tarjima strategiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda to’liq ekvivalentlik holatida birinchi strategiya (o’xshash ma’no va shaklga ega idiomalardan foydalanish), qisman ekvivalentlik holatida ikkinchi strategiya (o’xshash ma’noga ega, ammo shakli farq qiladigan idiomalardan foydalanish), ekvivalentsizlik holatida uchinchi strategiya (parafras orqali tarjima qilish) qo’llaniladi. Ushbu tadqiqot natijalaridan ikki tilli lug’atlar tuzishda, tarjima amaliyotida, shuningdek, ingliz va o’zbek tillarini o’qitish jarayonida foydalanish mumkin. Kelajakda ushbu tadqiqotni boshqa tillardagi xarakter iboralari bilan qiyosiy o’rganish orqali kengaytirish mumkin.

References

1. Beyker M. In Other Words: A Coursebook on Translation / M. Beyker. – London: Routledge, 1992. – 304 s.
2. Fernando S. Idioms and Idiomaticity / S. Fernando. – Oksford: Oxford University Press, 1996. – 265 s.
3. Fillmore Ch. J. An Alternative to Checklist Theories of Meaning // Proceedings of the First Annual Meeting of the Berkeley

Table 1. Ingliz va o'zbek tillaridagi iboralar taqqoslanishi

Ingliz tilidagi ibora	O'zbek tilidagi ibora	Ma'nosi
lose one's head	boshini yo'qotmoq	o'zini yo'qotib qo'ymoq, dovdiramoq
have a heart of gold	Ko'ngli toza	juda saxiy, mehribon
cold-blooded	Sovuqqon	hissiz, berahm
wolf in sheep's clothing	qo'y terisini yopingan bo'ri	ayyor, yomon odam
sharp-tongued	tili o'tkir	keskin gapiruvchi, tanqidchi

Table 2. Ingliz va o'zbek tillaridagi iboralar taqqoslanishi

Ingliz tilidagi ibora	O'zbek tilidagi ibora	Ma'nosi
lose one's head	boshini yo'qotmoq	o'zini yo'qotib qo'ymoq, dovdiramoq
have a heart of gold	Ko'ngli toza	juda saxiy, mehribon
cold-blooded	Sovuqqon	hissiz, berahm
wolf in sheep's clothing	qo'y terisini yopingan bo'ri	ayyor, yomon odam
sharp-tongued	tili o'tkir	keskin gapiruvchi, tanqidchi

Linguistics Society / pod red. K. Kogen. – Berkeley: Berkeley Linguistics Society, 1975. – S. 123–131.

4. Fillmore Ch. J. Frames and the Semantics of Understanding // Quaderni di Semantica. – 1985. – № 6. – S. 222–254.
5. Fillmore Ch. J., Kay P., O'Connor M. K. Regularity and Idiomatcity in Grammatical Constructions: The Case of Let Alone // Language. – 1988. – № 64. – S. 501–538.
6. Halliday M. A. K. An Introduction to Functional Grammar / M. A. K. Halliday. – London: Edward Arnold, 1985. – 387 s.
7. Hausmann F. J. Von der Unmöglichkeit der kontrastiven Lexikologie // Von der Allgegenwart der Lexikologie / pod red. H. J. Kromann, A. L. Kjer. – Tübingen: Niemeyer, 1995. – S. 19–23.
8. Hesski R. Phraseologie: Linguistische Grundfragen und kontrastives Modell Deutsch-Ungarisch / R. Hesski. – Tübingen: Niemeyer, 1987. – 139 s.
9. Hockett C. F. A Course in Modern Linguistics / C. F. Hockett. – New York: Macmillan, 1958. – 621 s.
10. Koller W. Probleme der Übersetzung von Phrasemen // Phraseologie: Ein internationales Handbuch zeitgenössischer Forschung / pod red. H. Burger, D. Dobrovol'skij, P. Kün, N. R. Norrix. – Berlin: de Gruyter, 2007. – S. 605–613.
11. Kunin A. V. Angliyskaya frazeologiya: Teoreticheskiy kurs / A. V. Kunin. – Moskva: Vysshaya shkola, 1970. – 344 s.
12. Mamatov A. E. O'zbek tili frazeologiyasi / A. E. Mamatov. – Toshkent: Fan, 2019. – 184 s.
13. Newmark P. Approaches to Translation / P. Newmark. – Oxford: Pergamon Press, 1981. – 200 s.
14. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati / Sh. Rahmatullaev. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – 405 s.
15. Sapir E. Language: An Introduction to the Study of Speech / E. Sapir. – New York: Harcourt, Brace, 1921. – 258 s.